



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADİGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATİSYASI

ISSN: 2181-1776

Xolmurodova Muharram Xushvaqtovna, Zokirova Intizor Shavkatovna

SamDU Kattaqo 'rg'on filiali 1-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: Madatov Ilhom Yusupovich

INKLYUZIV TA'LIM DAVR TALABI

Annotatsiya: *Inklyuziv ta'linda yuz berayotgan o'zgarishlar va bu ta'lim tizimini chuqurroq o'rghanish. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish. Bu ta'lim shakli hozirgi kunda eng samarali qulay ta'lim tizimi sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda.* Inklyuziv ta'limning yutuqlari kundan kunga ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, anomal bolalar, tiflopedagogika, surdopedagogika, logopediya, integratsiyalash*

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimiga katta e'tibor berilmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlari inklyuziv ta'lim tizimiga katta ahamiyat berilmoqda va bu sohada ko'plab yutuqlarga erishmoqdalar.

Inklyuziv ta'lim muassasalari birinchi bo'lib Rossiyada 1980-1990-yillar paydo bo'lgan. Inklyuziv ta'lim maxsus yordamga muhtoj bo'lgan turli toifadagi anomalligi bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning birga ta'lim tarbiya olishlari imkonini beradi. Bu ta'lim tizimi maxsus yordamga muxtoj bolalarmi muloqotga kirishishida, o'z tengdoshlari bilan fikr almashinishida, ota-onalarga amaliy yordam berishda, moddiy tomonidan qiynalayotgan oilalarga har tomonlama qulaylik olib keldi.

1990-yilda Djonpiyeyen (Tailandda) muhim konferensiya o'tkazdi va bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" shiorini hammmada shakllantirish uchun qaratilgan bo'lib bu konferensiyada 155ta davlat vakillari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qo'shildilar. Tahlil qilinganda 10-15foiz bolalar maxsus ta'limga muhtoj



ekanligi aniqlandi. Anomallikning ham turli toifalari bor ayrim maxsus yordamga muhtoj bolalar birovning ko'magisiz harakatlana olmasligi, o'z ehtiyojlarini qondira olmasligi mumkin. Shuning uchun ham maxsus maktab internatlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Maxsus pedagogika-rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lган bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Eshitishida, tayanch-harakat sistemasida, ko'rishida, nutqida va aqliy faoliyatida nuqsonlari bo'lган bolalarni rivojlanishi va o'sishini o'rganish uchun maxsus pedagogika bo'limlari o'rganadi.

Surdopedagogika-eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Oligofrenopedagogika-aqliy zaif bolalarni rivojlantirish o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Tiflopedagogika-ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logopediya-nutqi shuningdek motor harakatlanish sohasida murakkab nuqsonlari bo'lган bolalarni rivojlantirish va o'qitish masalalarini o'rganadi.

Hozirda turli nuqsonlari bo'lган bolalarni maxsus holda emas, balki umumiy o'z tengdoshlari bilan birga ta'lim olishini ta'minlash uchun inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirishga katta e'tibor berilyapti va 90-yillarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;
2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili
3. Bog'lanishning mavjud bo'lish tamoyili;
4. Markazlashtirilmagan bo'lish tamoyili;
5. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashuv tamoyili;
6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili;
7. Malakaviylik tamoyili ;

Bu tamoyillarning har biri inklyuziv ta'lim sohasini imkoniyatlarini kengaytiradi. Inklyuziv ta'lim 90-yillarning eng markazida bo'lган masalalardan biridir. Bu ta'lim tizimiga juda ko'p davlatlar ham katta e'tibor berib kelmoqda.

Xususan, Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjalari o'rganib chiqilmoqda. Keyinchalik hamma davlatlar maxsus maktablar qoshida inklyuziv ishslash uslublari qabul qilindi. Har bir davlatda inklyuziv ta'lim joriy etilishi bolalarning o'z oilasi va qarindoshlar-urug'lari davrasida bo'lish imkonini beradi. Har bir maxsus yordamga muhtoj bola o'z huquqlariga ega, bilim olish, fan olimpiyadalarida qatnashishi, turli sport musobaqalarida ham ishtirok etish huquqiga ega.

Inklyuziv ta'lim oldida turli muammolar ham turibdi. Bular quyidagilardan iborat:

Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat;

Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ hujjalarida qayd qilinmaganligi ;

Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinaslik muammosi;



Moddiy mablag‘ muammosi;
Ta’lim muassasalarini moslashtirish ;
Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi ;
Kambag‘allik ;
Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;
Kadrlar masalasidagi muammolar;
Favqulotda vazyatlar

Inklyuziv ta’lim joriy etilishi bu kabi ko‘plab muammolarni hal qilish imkonini beradi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar inklyuziv ta’lim tizimida o‘qisalar kamsitishlarni oldini olishga, kambag‘allikni bartaraf etishga, qashshoqlik iskanjasidan qutilish imkonini beradi. Imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish, ko‘maklashish va maxsus ta’limni rivojlantirish bo‘yicha Yevropa agentligi tomonidan 1999-yil maruza chop etilgan. Bu hujjatda 17 ta Yevropa davlatlarida integratsiyaga ta’limini tashkil qilish holati bo‘yicha fikr yuritildi. 34ta integratsiyalashgan ta’lim sohasida o‘z xohishiga ko‘ra qaror qabul qilish tarafдорлari, xorijliklar ijobiy tajribasiga ishora qiladilar.

Imkoniyati cheklangan insonlar ham juda ko‘p yutuqlarga erishishgan, ularga har bir davlat katta e’tibor berib kelmoqda. Masalan, Samarqand olimpiya zaxiralari kollejida davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig‘I kubogi uchun shaxmat musobaqasi o‘tkazildi. Aql mashqida viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan 60 nafarga yaqin 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan imkoniyati cheklangan o‘g‘il-qizlar o‘zaro bellashdilar.

Bellashuv yakuniga ko‘ra, Shahboz Qudratov hamda Durdona Jumanova birinchi o‘ringan sazovor bo‘ldi. Ikkinchi o‘rinni Shehroz Daminov va Rayhona Sharafova egallagan bo‘lsa, uchinchi o‘rin Hasan Rashidov va Habiba Omonovaga nasib etdi. G‘oliblarga diplom hamda qimmatbaho sovg‘a berildi. Boshqa ishtirokchilarga ham tashakkurnoma taqdim etildi. Kattaqo‘rg‘on shahridan kelgan 23 yoshli Murodulla Ortiqov shaxmat donalarini qanday yurish kerakligini onasiga aytib turdi va raqiblariga bo‘sht kelmay yetti turda 4,5 ochkoga ega bo‘ldi. O‘yinda qatnashgani uchun unga nogironlik aravachasi va tashakkurnoma berildi. Yana bir polshalik rassom Mariush Kedzerskiy qo‘llarsiz tug‘ilganiga qaramasdan, hayratlanarli rasmlar yaratmoqda edi. Yosh yigit kamdan kam urchaydigan irsiy kasallik tufayli qo‘lsiz tug‘ilgan biroq bu uni o‘z orzularini ro‘yobga chiqarib, professional darajada surat chizishiga xalaqit qila olmadi. Rassomning aytishicha, 7 yil davomida 700 dan ko‘proq surat chizgan va bunga 15 ming soatdan ko‘proq vaqt sarflagan. Kedzerskiy suratlari ko‘plab davlatlarga, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreyaga sotiladi. U 2013-yilda nufuzli Best Global Artist tanlovida 2-o‘rinni egallagan. Har qanday imkoniyatlari cheklangan insonlar ham o‘z orzularini amalga oshirish uchun harakat qilishsa albatta amalga oshishi mumkinligi, bu borada juda ko‘p ishlar olib borilmoqda.

Inklyuziv ta’limning joriy etilishi ham bu borada nogironligi bo‘lgan bolalarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Respublikamizning barcha hududlarida inklyuziv ta’lim tizimi joriy etib borilmoqda va Davlatobod tumani xalq ta’lim bo‘limiga



qarashli 33-maktabda inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan sinflar ochildi. Ushbu sinflarda uch nafardan alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan o'quvchilar qabul qilindi. Bu uch nafar maxsus yordamga muhtoj bolalar yol davomida pedagoglar tomonidan juda yaxshi ta'lim tarbiya bergenlari uchun zahmatkash pedagoglarga faxriy yorliqlar va estalik sovg'alari ham berildi. Bu kabi barcha harakatlar yosh avlodni jamiyatda, oilada o'z o'rnini topishiga, ko'plab yutuqlarga erishish, hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Integratsiyalash bu imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tarbiya berishdan tashqari ularga ijtimoiy va sog'liqni saqlash xizmatlarini ham joriy qilishdir. Integratsiyalashgan bolalarga yordam berish maxsus pedagoglar va ular bilan birgalikda ularning ota-onalari birga shug'ullanadilar. Daniya va Shvetsiyada maxsus sinf o'quvchilari bilan faqatgina maxsus pedagoglar shug'ullanganlar. Italiya integratsiyalashgan bolalarga maxsus pedagoglardan tashqari oddiy pedagoglar ham ishslashgan. Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlashda yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishi lozim deb topilgan. Bu davlatlarda ta'lim turini ota-onalar o'z xohishlariga ko'ra tanlashadi. Inklyuziv ta'limni har bir davlat o'z prinsiplari orqali fikr bildirib ko'plab o'zgarishlar va yangiliklar qilib bormoqdalar.

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim tizimiga oid prezidentimiz "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 13-oktabr 2020-yil qaror qabul qilindi. Qaror bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiysi va uni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq 2021/2022-o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida

- shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochiladi;

- Qashqadaryo, Farg'onha va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar tashkil etiladi.

Bundan tashqari maxsus inklyuziv ta'lim laboratoriysi ham ochildi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida uning belgilangan shtat birliklari doirasida "Inklyuziv ta'lim laboratoriysi" tashkil etiladi.

Mazkur laboratoriyaning asosiy vazifalaridan biri maktablarda inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish hisoblanadi. Bundan ko'rinish turibdiki, imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalardek barcha imkoniyatlarga ega va ular uchun hamma shart-sharoitlar



yaratilgan va yanada ko‘proq qulaylik yaratish uchun inklyuziv ta’limga katta e’tibor berilmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimida joriy etilayotgan bunday imkoniyatlar alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarga ko‘plab qulayliklar yaratib berdi. Imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish va ularni tarbiyalashga qaratilgan harakatlar albatta o‘z natijasini berib kelmoqda. Bu ta’lim tizimi takomillashtirish uchun izlanishlar olib borilmoqda va turli yangiliklar yaratilmoqda. Bu kabi intilishlar va harakatlarga albatta har bir bola bilim olish, erkin fikrlay olish, o‘zi xohlagan kasb egasi bo‘lishida katta imkoniyat yaratadi. Ularning ham hamma orzulari amalga oshadi va bu uchun hamma imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kungacha ular ko‘plab yutuqlarga erishganlar. Muhimi o‘ziga bo‘lgan ishonch, intilish va harakat orqali hammasiga erishishlariga ishonaman.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. 2020-2025 yillar O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi
2. D.S.Qaxarova, Inklyuziv ta’lim texnologiyasi o‘quv qo‘llanma, Jizzax., 2017 y